

Fuqarolik jamiyati institutlarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha "ngo.gov.uz" yagona elektron platformasidan foydalanish tartibi to'g'risida

NIZOM

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom Oliy Majlis huzuridagi Fuqarolik jamiyati institutlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondi (keyingi o'rnlarda - "Jamoat fondi") tomonidan fuqarolik jamiyati institutlarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha onlays platforma" axborot tizimi (keyingi o'rnlarda - Yagona elektron platforma) orqali tanlovlard o'tkazish, baholash, monitoring qilish hamda jamoatchilik muhokamalarini tashkil etish tartibini belgilaydi.

2.Nizomda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

Yagona elektron platforma - fuqarolik jamiyati institutlariga davlat subsidiyalari, grantlari va ijtimoiy buyurtmalarini ajratish bilan bog'liq barcha jarayonlarning shaffofligini ta'minlashga qaratilgan asosiy imkoniyatlarni nazarda tutuvchi axborot tizimi;

Yagona elektron platformaning veb-sayti (keyingi o'rnlarda - "ngo.gov.uz") - yagona elektron platformaning jamoatchilikka ochiq qismi va shu bilan birgalikda Jamoat fondining rasmiy veb-sahifasi;

Yagona elektron platformadagi foydalanuvchilarining shaxsiy kabineti (keyingi o'rnlarda - "cabinet-ngo.gov.uz") - yagona elektron platformada fuqarolik jamiyati institutlariga tanlovlarni tashkil qilish, baholash va monitoringdan o'tkazish bilan bog'liq barcha jarayonlarni o'z ichiga oluvchi va kuzatib turish imkoniyatini beruvchi asosiy qism;

Respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari (keyingi o'rnlarda — davlat organlari) **kabineti** - davlat organlari tomonidan davlat buyurtmalarini Jamoat fondiga yuborish uchun elektron platformadagi sahifa;

Jamoat fondi va uning hududiy bo'linmalarining kabineti - davlat buyurtmalarini qabul qilish, tanlovlard tashkil qilish, tanlova kelib tushgan loyihalarni texnik ko'rikdan o'tkazish, moliyalashtirilgan loyiha va dasturlari ijrosi bo'yicha hisobotlar qabul qilish uchun yagona elektron platformadagi sahifa;

Fuqarolik jamiyati institutining shaxsiy kabineti - Jamoat fondi tomonidan e'lon qilinadigan tanlovlard va jamoatchilik muhokamasida ishtiroy etish hamda hisobot yuborish uchun yagona elektron platformadagi sahifa;

Parlament komissiyasi a'zolarining shaxsiy kabineti - fuqarolik jamiyati institutlarining loyiha va dasturlarini baholash uchun elektron platformadagi sahifa;

Monitoring guruhining shaxsiy kabineti - fuqarolik jamiyati institutlarining loyihasiga ajratilgan mablas larni maqsadli sarflanganligi bo'yicha monitoring qilish va xulosa berish uchun yagona elektron platformadagi sahifa;

"Elektron hukumat" tizimining Idoralararo integratsiyalashuv platformasi (keyingi o'rnlarda - Idoralararo integratsiyalashuv platformasi) - elektron davlat xizmatlarini ko'rsatish va idoralararo elektron hamkorlikni tashkil etish doirasida axborot tizimlari va resurslarini integratsiyalash uchun mo'ljallangan apparat-dasturiy vositalar majmuasi;

Yagona identifikatsiya tizimi (keyingi o'rnlarda - OneID tizimi) - davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari va tijorat tashkilotlarining turli veb-saytlari va portallariga barcha foydalanuvchilar uchun qulay foydalanish uchun mo'ljallangan tizim.

3. Fuqarolik jamiyati instituti sifatida davlat ro'yxatidan o'tmagan tashkilotlar platformadan foydalana olmaydi.

2-bob. Yagona elektron platformani boshqa elektron axborot tizimlari bilan o'zaro integratsiya qilish

4. Yagona elektron platformada davlat organlarining axborot tizimlari bilan axborot almashinuvi O'zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga Qonunchilik palatasi tomonidan tasdiqlangan texnologik yo'rqnoma asosida operator tomonidan amalga oshiriladi.

5. Davlat organi xodimi, fuqarolik jamiyatini institutlari, Jamoat fondi mablag'lari bo'yicha Parlament komissiyasi a'zolari, Jamoat fondi va uning hududiy bo'linmalari xodimlari, monitoring guruhi vakillarini identifikatsiya qilish OneID tizimi va yagona elektron platformaning o'zaro integratsiyalashuvi asosida amalga oshiriladi.

6. Fuqarolik jamiyatini institutlariga oid ma'lumotlar almashinuv jarayonlari Idoralararo integratsiyalashuv platformasi va Yagona elektron platformaning o'zaro integratsiyalashuvi asosida amalga oshiriladi.

7. Yagona elektron platformadan foydalanish OneID tizimi va elektron raqamli imzo kaliti (keyingi o'rinni - ERI kaliti) orqali, axborot almashinuvlari esa Elektron hukumatining idoralararo integratsiyalashuv platformasi orqali amalga oshiriladi.

8. Yagona elektron platformaga ma'lumotlarning o'z vaqtida kiritilishi, to'g'riligi hamda to'liqligi bo'yicha Axborot texnologiyalarini joriy qilish va axborot xavfsizligi bo'yicha mas'ul xodimlari javobgar hisoblanadi.

Mas'ul xodimlar jismoniy va yuridik shaxslarning shaxsiy ma'lumotlardan faqat xizmat doirasida foydalanadi va egasining roziligidan uchinchi shaxslarga berilmaydi.

3-bob. Yagona elektron platformadan ro'yxatdan o'tish va undan foydalanish

9. Platformaga kirish yuridik shaxs sifatida elektron raqamli imzo (ERI) orqali amalga oshiriladi.

10. Fuqarolik jamiyatini institutining rahbar va hisobchisi tizimda shaxsiy kabinet yaratish uchun OneID tizimida jismoniy shaxs sifatida ro'yxatdan o'tgan bo'lishi lozim.

Fuqarolik jamiyatini instituti yagona elektron platforma ro'yxatdan o'tishi uning shaxsiy ma'lumotlaridan foydalanishga rozi ekanligini bildiradi.

11. OneID tizimida jismoniy shaxs sifatida ro'yxatdan o'tgan fuqarolik jamiyatini institutining rahbari va hisobchisi faoliyat olib borayotgan tashkilotni ERI kalitini OneID tizimidagi kabinetiga bog'lash orqali tashkilot nomidan tanlova loyiha arizasi taqdim etadi.

12. Fuqarolik jamiyatini institutlari tomonidan ERI kalitidan foydalanish, elektron tizimda tasdiqlanadigan hujjatlarni, tuziladigan shartnomalarni haqiqiy deb topish uchun asos bo'lib hisoblanadi.

13. Tanlovlarda ishtirok etish uchun Fuqarolik jamiyatini institutlari arizalarni to'ldiradi, tanlov talablari asosida hujjatlarni yuklaydi.

14. Jamoat fondining platformasi "Elektron hukumat" tizimini idoralararo integratsiyalashuv platformasiga ulangan bo'lib, rasmiy ma'lumotlar avtomat tarzda ko'rindi.

15. Quyidagi kamchiliklar aniqlanganda Fuqarolik jamiyatini institutlari tizimdan foydalanish huquqiga ega bo'lmaydi:

- tugatilayotgan, tugatish ishi yurituvi nihoyasiga yetkazilmagan yoki tashkil etish jarayoni tamomlanmagan;

- soliq va majburiy yig'imlardan qarzdorligi mavjud bo'lgan.

16. Elektron tizim talabgorni tanlova qo'yilmaganligi to'g'risida sababi ko'rsatilgan holda talabgorning shaxsiy kabinetida xabar beradi.

17. Fuqarolik jamiyatini institutlari Elektron hukumatning idoralararo integratsiyalashuv platformasi orqali shakllantirilgan ma'lumotlarga qo'shimcha kiritish, ularni tahrir qilish va to'ldirishni shaxsiy kabinetda amalga oshirishi mumkin.

18. "Uzinfocom" davlat axborot tizimlarini yaratish va qo'llab-quvvatlash bo'yicha yagona integrator" MCHJ (keyingi o'rinni — operator) elektron platformaga texnik xizmat ko'rsatish, uni yanada takomillashtirish, shuningdek, uning uzluksiz va xavfsiz ishlashi uchun mas'ul hisoblanadi.

4-bob. Yagona elektron platformada tanlovlар yo‘nalishларини шакллантirish bo‘yicha jamoatchilik muhokamasi

19. Fuqarolik jamiyatni institutlari va keng jamoatchilik yagona elektron platformada O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi huzuridagi Jamoat fondiga tanlovlар yo‘nalishларини шакллантirish bo‘yicha o‘z taklifларини yo‘llashi mumkin.

20. Taklifning matni qisqa, aniq va ravon tilda bayon etilishi hamda 500 ta so‘zdan oshmasligi lozim. Taklif davlat tilida va boshqa tillarda berilishi mumkin.

Taklifda elektron taklif tashabbuskorining shaxsiy ma’lumotlari va mutaxassisligi ko‘rsatilgan bo‘lishi kerak.

21. Taklif beruvchi bila turib yolg‘on, boshqa bir shaxsni sharmanda qiluvchi uydirmalarni tarqatganda va shaxsnинг sha’ni va qadr-qimmatini qasddan kamsitganda qonunchilikda belgilangan tartibda javobgarlikka tortilishi mumkin.

22. Davlat va jamiyat hayotining muhim sohalarini takomillashtirishda dolzarb bo‘igan takliflarning mualliflari O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi huzuridagi Jamoat fondiga taklif etilishi mumkin.

23. Jamoat fondi kelib tushgan takliflarni dolzarbligiga ko‘ra saralaydi va umumlashtirgan takliflar Parlament komissiyasiga taqdim etiladi.

24. Taklif beruvchi yagona elektron platforma orqali taklif bildirishidan oldin ommaviy ofertaga rozilik bildirishi kerak va bu ushbu Nizom talablari amal qilishi lozimligini bildiradi.

4 bob. Taqdim etilgan loyihalarni Yagona elektron platformada hisobga olish va hisobotini yuritish

25. Ochiq tanlovlarga qabul qilingan loyiha arizalarini hisobga olish va hisobotini yuritish ishlari Yagona elektron platformada amalga oshiriladi.

26. Fuqarolik jamiyatni institutlarining tanlovlarga kelib tushgan loyiha arizalarining statistik hisobi va hisoboti Yagona elektron platformada yuritiladi.

5-bob. Loyihalarni ko‘rib chiqish, saralash va tanlash, ularning ijtimoiy ahamiyatini va g‘olib loyihalarni aniqlash mezonlari

27. Jamoat fondi va uning hududiy bo‘linmalari Yagona elektron platforma orqali kelib tushgan loyihalarni barcha maydonlari to‘liq va to‘g‘ri to‘ldirilganligi, loyiha tanlov mavzusiga mosligi, Jamoat fondidan oldin amalga oshirgan dastur va loyihalaridan qarzdorligi mavjudligi bo‘yicha o‘rganib chiqadi.

28. Tanlov yakunlanishi bilan o‘rganib chiqish natijalariga ko‘ra har bir tashkilot loyihasiga xulosa bergen holda Parlament komissiyasi raisining shaxsiy kabinetiga yuboriladi.

29. Tanlovga taqdim etgan Fuqarolik jamiyatni institutlarining loyihalari Parlament komissiyasi raisining shaxsiy kabinetida ko‘rinadi.

30. Parlament komissiyasi raisi Ishchi guruh a’zolarining shaxsiy kabinetlariga loyihalarni ko‘rib chiqish va baholash uchun yuboradi. Ishchi guruh a’zolari loyihalarni mezonlar orqali shaxsiy kabinetida baholaydi.

31. Parlament komissiyasi fuqarolik jamiyatni institutlari loyihalarini ko‘rib chiqish, saralash va tanlash, ularning ijtimoiy ahamiyatini va g‘olib loyihalarni aniqlash jarayoniga tegishli yo‘nalishlar bo‘yicha tajribali ekspertlarga shaxsiy kabinet ochib bergen holda jaib qilishi mumkin.

32. Ishchi guruh a’zolari loyihalar baholanishining shaffofligi va haqqoniyligini ta‘minlanishi maqsadida arizadan tashkilotning nomini oshkor qiluvchi ma’lumotlarni berkitilgan holda qabul qiladi, ularning ijtimoiy ahamiyatini baholaydi. Loyihalar Ishchi guruh a’zolari qabul qilgan kundan keyin 5 kun muddatda 5 ballik tizimda baholanadi.

33. Barcha Ishchi guruh a’zolarining baholash natijalari bo‘yicha ballar yig‘indisi Ishchi guruh rahbarining shaxsiy kabinetida jamlanadi. Ko‘rib chiqish natijalari bo‘yicha ballar yig‘indisi ro‘yxati Parlament komissiyasining shaxsiy kabinetida shakllanadi.

34. Ballar yig‘indisi ro‘yxati tizimda eng yuqori ball olgan tashkilotdan boshlanib kamayib borish uslubida shakllanadi.

35. G'olib bo'lgan tashkilotlar ro'yxati, har bir tashkilotga ajratilgan mablag' hajmi, loyihani amalga oshirish muddati ko'rsatilgan holda tizimda tasdiqlanadi.

6-bob. Loyihalarni moliyalashtirish va amalga oshirish, loyihalarning hisobi va hisobotini yuritish

36. Parlament komissiyasi qarorining ko'chirma nusxasi va g'oliblar ro'yxati Jamoat fondi ijro etuvchi devoni tomonidan Yagona elektron platformaga joylashtiriladi.

37. Fuqarolik jamiyatni institutlarining tanlov bilan bog'liq hujjatlari (ikki yoki uch tomonlama shartnoma va uning ilovalari, g'oliblik sertifikati, oraliq, yakuniy hisobotlar) ERI bilan tasdiqlangan holda faqat Yagona elektron platformada shakllantiriladi va qabul qilinadi.

38. Shartnomalar Yagona elektron platformada ERI orqali imzolanadi.

39. Fuqarolik jamiyatni institutlari tomonidan loyihani amalga oshirish bo'yicha oraliq va yakuniy hisobotlar Yagona elektron platforma Jamoat fondiga taqdim etilib boriladi.

40. Fuqarolik jamiyatni institutlarining asoslantirilgan sabablariga ko'ra loyihani amalga oshirish muddati Parlament komissiyasi yoki Jamoat fondi tomonidan uzaytirilishi hamda xarajatlar smetasiga o'zgartirish kiritilishi mumkin. Loyiha bo'yicha barcha o'zgartishlar yuzasidan murojaatlar tizim orqali almashiniladi.

7-bob. Loyihalar amalga oshirilishining nazorati

41. Fuqarolik jamiyatni institutlari tomonidan yuborilgan loyiha yakuni bo'yicha hisobotlar Jamoat fondi va uning hududiy bo'linmalari hamda Monitoring guruhining kabinetida shakllanadi. Monitoring guruhi va Jamoat fondining ijobiy xulosalariga muvofiq yakunlangan hisoblanadi.

8-bob. Yakunlovchi qoidalar

42. Operator elektron platformaning ishlashi, axborot xavfsizligining ta'minlanishi, tizimdagagi shaxsga doir ma'lumotlarga ruxsatsiz kirishning oldini olish uchun mas'ul hisoblanadi.

43. Shaxsga doir ma'lumotlar qonunchilikka muvofiq himoya qilinadi.

44. Ushbu Nizom talablari buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda javobgar bo'ladi.

45. Ushbu Nizomga qo'shimcha va o'zgartishlar Parlament komissiyasi tomonidan kiritiladi.